



On-Layn Savdo Maydonchalarini Yaratish Texnologiyalarini Takomillashtirish

Mukimov Ravshan Muxamatovich

Toshkent moliya instituti talabasi

Jumaniyazova Mukaddas Yuldashevna

Toshkent moliya instituti, Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish imkoniyatlari, elektron tijorat bo'yicha dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi va raqamli savdoning mamlakatimizda rivojlanishi tahlil qilingan, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, raqamli savdo, elektron tijorat modellari, savdo platformasi.

Kirish

So'nggi davrda axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning jadallik bilan rivojlanishi paydo bo'lishi jahon iqtisodiyotida yangi —Raqamli iqtisodiyotni tushunchasini paydo bo'lishiga olib keldi. Insoniyat hayotiga shiddat bilan kirib kelayotgan raqamlashuv jarayoni bir qator qulayliklarni keltirib chiqarishi bilan birga, ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, biznesda faoliyat olib borayotgan kompaniyalar uchun kamroq xarajat qilib, maksimal darajada foyda olish, tovar hamda xizmatlarini sotishning eng qulay usullarini yaratmoqda. Iste'molchi uchun esa sifatli xizmat ko'rsatish, qisqa vaqtda, hohlagan joydan tez va qulay usulda tovarlarni sotib olish va xizmatlardan foydalanish imkoni yaratildi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga alohida e'tibor berilmoqda.

Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib boryapti. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar, internet va sun'iy intellektdan foydalanish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlangan va ushbu strategiyani amalga oshirish doirasida keng miqyosdagi chora-tadbirlar kompleksi rejalashtirilgan [1]. Ushbu farmonga muvofiq, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan [2]. Shuningdek, 2021 yil 17 noyabrdagi —Elektron tijorat ma'murchiligini takomillashtirish va uni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-14-son qarorida elektron tijorat sohasidagi platformalar



faoliyatini qo'llabquvvatlash hamda akkreditiv bo'yicha hisob-kitob tizimini joriy etish, Elektron tijoratning —Ochiq raqamli ekotizimilni tashkil etish, Raqamli ekotizimning —eskroul tizimi joriy qilish, 2024-yil 1-yanvarga qadar Raqamli ekotizimga integratsiyalashgan elektron tijorat platformalari operatorlari uchun foyda solig'i stavkasi 50 foizga kamaytirish kabi masalalar ko'zda tutilgan.

Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi —Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida 2023 yilga borib mamlakat yalpi ichki mahsulotida raqamli iqtisodiyotning ulushini 2 barobarga, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish hamda ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Shu sababli hozirgi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot, shuningdek, elektron tijoratni rivojlantirish maqsadida xorij tajribasini o'rganish, mamlakatimizda mazkur sohaning rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha ilmiy asosalangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalari bo'lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot deylganda, barcha sohalarni ya'ni, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda ushbu tushuncha internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki vebiqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Ilk marotaba —raqamli iqtisodiyotl terminini amaliyotga 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte kiritdi.

Ko'plab xorijlik olimlar A.Goldfarb - K. Taker, D.Tapscott, N.Lane, T.Mesenbourg, R.Xiks, M.Polojixina, M.Kastels, B.Panshin, R.A.Solou, N.Negropontelar tomonidan Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va uning shakllari tadqiq qilingan.

Butun dunyoda o'zining texnologiya bo'yicha eng ko'p o'qiladigan va iqtibos keltiriladigan kitoblarning muallifi, innovatsiyalar, ommaviy axborot vositalari va texnologiyaning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri bo'yicha dunyodagi yetakchi ma'murlardan biri professor Don Tapscott o'zining Raqamli iqtisodiyot (The Digital Economy) asarida - —Raqamli Iqtisodiyot - axborot magistralinig qorong'u tomonini ham hal qiladi - har bir biznes, jamiyat va shaxs uchun amalga oshirilayotgan inqilobning xavf-xatarlariga birinchi ochiq, muvozanatli va har tomonlama qarashdir degan fikrni ilgari surgandi. Tapscott ushbu kitobi bilan yangi iqtisodiyot va adolat, demokratiyaga asoslangan yangi jamiyatga o'tishda biznes va raqamli iqtisodiyotning roli haqida xalqaro munozarani ochib berdi.

Toronto va NBER universiteti tadqiqotchisi, Rotman menejment maktabining marketing fanlari professori Avi Goldfarb va MIT maktabi menejment fanlari bo'yicha taniqli professori Ketrin Taker —Raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar bu ma'lumotlarni saqlash, hisoblash va uzatish xarajatlarini kamaytiradi va Raqamli iqtisodiyot bo'yicha tadqiqotlar iqtisodiy faoliyatni yuqori sur'atda qanday o'zgarishini o'rganadi – deb aytgandi.

Rossiyalik iqtisodchi olim D.A. Averyanova —Raqamli iqtisodiyot raqobatbardoshlikni oshiradi, investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantiradi va turizm samaradorligini oshiradi-



degan fikrni ilgari surgan.

Hozirgi zamonaviy raqamli iqtisodiyotda elektron tijorat va elektron savdoning ahamiyati juda katta bo'lib bormoqda. O'zining tranzaksiya xususiyatiga ko'ra, elektron tijorat juda tez iqtisodiy munosabatlarni yangi tizimli darajada chuqur o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan yangi institutsional tsiklning driverlaridan biriga aylandi.

B. Kleindl elektron tijorat tushunchasini "Global Internet tarmog'ida tranzaksiyalarni jalb qilish amaliyoti va veb-saytlarda avtomatlashtirilgan xaridlarni amalga oshirish" deb ta'riflaydi.

S.N.Smironovning ta'kidlashicha, elektron tijorat —global internet tarmog'i texnologiyalari asosidagi tovar va xizmatlarni sotib olish va sotishdir.

Tadqiqot natijalari


So'nggi bir necha yil ichida elektron tijorat global chakana savdo tizimining ajralmas qismiga aylanib, onlayn xaridlar tobora ommalashib bormoqda.

2021 yilda elektron chakana savdo butun dunyo bo'ylab 5,2 trillion AQSh dollaridan oshdi va bu ko'rsatkich 2025-yilga borib yetti trillion AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda.

Jahonda va mamlakatimizda elektron tijorat COVID-19 pandemiyasi davrida jadal sur'atlarda rivojlandi va turli iqtisodiyotlarda elektron tijoratning misli ko'rilmagan o'sishiga olib keldi. 2021 yilda elektron tijorat dunyo bo'ylab chakana savdolarning qariyb qiymatining 19 foizini tashkil etdi. Tahliliy bashoratlar shuni ko'rsatadiki, 2026 yilga kelib umumiy global chakana savdo-sotiqning onlayn (internet) segmenti savdo aylanmasing chorak qismini (25%) tashkil etadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, Lotin Amerika mamlakatlari, ayniqsa, Braziliya Argentina dunyoda onlayn chakana savdoning eng tez rivojlanayotgan bozorlariga aylanmoqda. Ammo, shunga qaramay, Janubiy Koreya, Tayvan, Malayziya va Filippin kabi mamlakatlar internet xaridlar bo'yicha jahon mamlakatlari o'rtasida (mamlakat savdosida onlayn xaridlar ulushi bo'yicha) reytingda birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Masalan, 2021 yilda Malayziyaning 45 % aholisi xaridlarni telefon orqali amalga oshirgan.

2022-yilda jahon hududlari kesimida Osiyo mamlakatlari elektron chakana savdodan 2,1 trillion AQSh dollariga etib jahonda etakchilik qilishi kutilmoqda. Oz navbatida ushbu ko'rsatkich Amerika qit'asi mamlakatlarida 1,1 trillion AQSh dollariga, Evropa davlatlarida esa 828 mln AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Afrika, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlar elektron savdodan olingan daromadi hajmi nisbatan kichik bo'lib muvofiq ravishda 43,9 va 52,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm 2022 yilda mintaqalar bo'yicha butun dunyo bo'ylab elektron savdo daromadlari (mln. AQSH dol.)

O'zbekistonda raqamli savdo tizimining rivojlanishi pandemiya davrida sezilarli darajaga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatda 2020-yilda elektron tijoratdan 481,3 million dollar daromad keltirildi va mamlakatdagi umumiy raqamli daromadning 68 foizini tashkil etdi, qolgan 32 foizi raqamli media, elektron xizmatlar va elektron sayohatlar hissasiga to'g'ri keldi.

AQSh Savdo vazirligi Xalqaro savdo departamentining Statista tadqiqotiga ko'ra, 2025-yilga borib, O'zbekistonda elektron tijoratdan tushadigan daromadlar har yili 6,3 foizga o'sadi.

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarga sarflangan mablag' ancha past bo'lib, 2020-yilda aholi jon boshiga iste'mol xarajatlarining 1,2 foizini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich Osiyoda o'rtacha 3,1 foizni tashkil etadi. Aholi asosan moda (32%) va elektronika (31%), oziq-ovqat va shaxsiy parvarish mahsulotlari (14%), o'yinchoqlar, sevimli mashg'ulotlari va DIY (11,5%), mebel va maishiy texnika (11%) uchun onlayn xarid qiladi.

AQSh xalqaro taraqqiyot agentligi bo'lgan USAID ko'magida 2022 yil yanvar oyida O'zbekistonning raqamli ekotizimini mamlakat miqyosida baholandi va e'lon qilindi. Shunday qilib, xalqaro ma'lumotlarni uzatish kanallarining o'tkazish qobiliyati 1800 Gbit/s ni tashkil etadi va bu ko'rsatkich 2022 yil oxiriga kelib 3200 Gbit/s gacha oshirildi.

Speedtest.net ma'lumotlariga ko'ra, uzatish xizmati mobil internet tezligi bo'yicha O'zbekistonni 138 mamlakat ichida 118-o'rinni egallaganligini ko'rishimiz mumkin.

Internetning kirib borishi-mintaqadagi oylik Internet auditoriyasining mintaqqa aholisiga nisbati Internetning kirib borish darajasi va foydalanuvchilar soni kabi ko'rsatkichlar mintaqaning Internet-tijorat bozorida rivojlanish darajasiga ta'sir qiladi.

2022 yil yanvar holatiga ko'ra, 35,5 million aholisi bo'lgan mamlakatda Internet foydalanuvchilari soni 27,2 million kishini tashkil etadi, ulardan 25,3 millioni mobil internet foydalanuvchilari va 3,2 millioni doimiy (maishiy) keng polosali internet foydalanuvchilardir.



Korxonada va tashkilotlarda internetga ulangan kompyuterlar soni 223.9 mingdan 441.9 mingtaga yetdi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yilning yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi 5,6 % ni tashkil etib, 2020 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 13,3 % ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda davlat xaridlari sohasida shaffoflikni va byudjet mablag'larining oqilona sarflanishini ta'minlash maqsadida davlat xaridlari elektron savdo maydonchlari orqali amalga oshirilishi belgilandi. Ushbu siyosat natijasida davlat xaridlari sohasida shaffoflik ta'minlanishi bilan bir qatorda elektron tijorat sohasining ham rivojlanishiga shart-sharoit yaratildi.

Elektron davlat xaridlari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda davlat xaridlarini amalga oshirishini nazarda tutadi.

Mamlakatimizda 2021 yilda "UNISAVDO" brendi ostida Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini onlayn sotish va mijozlarga yetkazib berish imkoniyatini beruvchi savdo maydonchasi o'z faoliyatini boshladi.

Bugungi kunda, ushbu —Unisavdo milliy onlayn savdo maydonchasi orqali yetkazib berilgan tovarlar uchun to'lovlarni joyida qabul qilishda foydalanilmoqda. Tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni joylashtirish bo'yicha 300 ta tadbirkorlar bilan shartnomalar tuzilib, 4 000 ga yaqin mahsulotlar joylashtirildi hamda 4 ta logistika markazlari tashkil etildi.

Savdo maydonchasi deb tarjima qilinayotgan "Marketpleys" hozirgi kundagi eng ommabop xarid turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu savdo maydonchasiga merchantlar — boshqacha qilib aytganda «savdogarlar» — o'z mahsulotlarini joylashtiradilar, xaridorlar esa sotib olishadi. Marketpleys va internet-do'konlar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, marketpleysda bir vaqtning o'zida ko'plab turli xil merchantlar o'z mahsulotlarini sotuvga qo'yishlari mumkin.

O'zbekistonda ham yangi marketpleys - Sello.uz o'z faoliyati samarali olib bormoqda.

Sello — bu O'zbekiston aholisi uchun internet xaridlarning o'z logistika tizimi va buyurtma topshirish punktlariga ega yangi formati desak to'g'ri bo'ladi. Keng assortimentdagi kiyimlardan tortib elektronika va maishiy texnikaga qadar mahsulotlarni tanlash, xarid qilishi va yetkazib berish xizmatlarini o'z ichiga olgan onlayn platformadir.

Rivojlangan davlatlar qatoriga chiqishimiz, iqtisodiyotimizni o'sishini barobarlarga oshirishimiz, mamlakatdagi YAIM ulushuni yuqori sur'atlarda oshirishimiz uchun allaqachon raqamli iqtisodiyot, raqamli tijorat va raqamli savdo tizimini yo'lga qo'yishimiz lozim edi. Bunday yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun raqamli tijorat va raqamli savdoda tijorat modellarining ahamiyati kattadir.

Onlayn savdo uchun elektron tijorat modellarining 10 dan ortiq turlari mavjud bo'lsada, ammo asosiy va amaldagi modellar B2B; B2C; C2B; C2C; G2B; modellari hisoblanadi.

O'zbekistonda B2B (Business to Business) segmentidagi eng yirik savdo maydonchasi bu- SSL sertifikatiga ega bo'lgan Prom.uz yirik savdo maydonchasi hisoblanadi. Ushbu savdo maydonchasidan mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan bozorlarning turli tarmoqlaridagi 8000 dan ziyod savdo bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar foydalanib kelmoqda. Prom.uz



O'zbekistondagi Korporativ va davlat xaridlari uchun juda qulay eng yirik yetkazib beruvchilar bazasiga ega bo'lgan va foydalanish qulay bo'lgan savdo maydonchasidir. Mamlakatimizda B2B segmentidagi faoliyat olib boruvchi yana bir yirik portal bu – Cooperation.uz ya'ni O'zbekiston Respublikasi Elektron Kooperatsiya portalidir. O'zbekistonda B2B segmentidagi faoliyat olib boruvchi, mijozlarimiz tovarlarni ulgurji yoki chakana savdoda xarid qilish imkoniyati mavjud bo'lgan OPENSHP, yellowpages.uz, uzex.uz kabi bir qator saytlar mavjud.

O'zbekistonda B2C (Business to Client) modeli asosida faoliyat yuritayotgan ilovalardan biri bu - transchegaraviy xaridlar uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda faol o'sib borayotgan ZoodMall ilovasini misol qilishimiz mumkin. ZoodMall xaridlar ilovasi 30 000 dan ziyod sotuvchilardan mahalliy brend shuningdek, 4 milliondan ortiq turli-xil va turli davlatlardan hamyonbop va yuqori sifatli bo'lgan tovarlarni, ya'ni, bolalar uchun o'yinchoqlar, kiyim-kechak, mobil telefonlari, aksessuarlar, kosmetika, uy-rozg'or uchun tovarlarni taklif qilmoqda. C2B modelida sotuvchining roli xususiy shaxsga beriladi va xaridor kompaniya hisoblanadi. Savdoni tashkil etishning bunday tizimi iste'molchilarga tijorat tashkilotlari tomonidan taklif etilayotgan tovarlar uchun xarajatlar chegaralarini belgilash imkonini beradi va shu orqali ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabni mustaqil ravishda shakllantiradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu biznes modeli mavjud bo'lganlar orasida eng kam qo'llaniladi. O'zbekistonda transchegaraviy elektron tijoratda ustunlik qiladigan Arba, AliExpress Marketplace savdo platformalari ko'proq mashhur.

O'zbekistonda C2C (Client to Client) modeli asosida faoliyat yuritayotgan 1-raqamli eng yirik online xizmatlardan biri bu shubhasiz OLX e'lonlar platformasi hisoblanadi. OLX - muayyan davlatlarda onlayn-maydon xizmatlarini taqdim etuvchi peshqadam e'lonlar taxtasidir. Bu platforma O'zbekistondagi eng mashhur saytlarning 10 taligiga kiradi. 2004 yilda Torg.uz nomi ostida ish boshlagan va 2015 yildan OLX nomi bilan mashhur in e'lonlar platformasi sonlarni tovar yoki xizmatlarni sotish, sotib olish va almashtirish orqali birlashtiradi. Ushbu xizmat orqali har bir kishi sanoqli daqiqalar ichida telefon yoki kompyuterdan e'lonlarni tez va osonlikcha joylashtirishi mumkin.

C2C modelidagi yana bir eng mashhur bo'lgan onlayn e'lonlar taxtasia Glotr bo'lib, u mahalliy kompaniyalarga mahsulot va xizmatlarni sotish uchun veb-saytlar yaratishga imkon beradi. Kompaniyalar ham o'z mahsulot va xizmatlarini ilgari surish uchun ijtimoiy tarmoqlardan (Facebook, Telegram va boshqalar) faol foydalanmoqda. Bir nechta banklar savdogarlar va korxonalariga o'z veb-saytlari va ilovalarida onlayn savdo bo'limlarini yaratish uchun to'lov vositalarini taklif qiladilar, bu esa o'z mijozlariga tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarni online to'lashni amalga oshirishga imkon beradi. Mamlakatimizda —G2B modeli ham samarali yo'lga qo'yilganligini alohida aytib o'tish kerak. Bu tizimda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali Internet tarmog'ida O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida, shu jumladan, «bir darcha» tamoilida faoliyat ko'rsatadi. (www.my.gov.uz) Mamlakatimizda ham elektron tijorat modellarini asosida ko'plab online savdo tizimlari rivojlanib, iqtisodiyotimizni sezilarli sur'atlarda o'sishiga olib kelmoqda.

Xulosa va takliflar



Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda elektron tijorat va elektron savdoga bo‘lgan ishonch yil sayin oshib bormoqda. Yurtimizda olib borilayotgan raqamli iqtisodiyotni, elektron hukumatni rivojlantirishga doir qilinayotgan chora-tadbirlar besamar bo‘lmayotganini aytishimiz. Raqamli iqtisodiyot, elektron tilorat va online savdo platformalarini yanada rivojlantirish natijasida milliy iqtisodiyotimiz yuksak darajada rivojlanishini ta‘minlashimiz bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun

– Respublikmizda barcha davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarida davlat xizmatlarini ko‘rsatish, raqamli texnologilarni keng joriy etish, raqamli infratuzilmani yaratish lozim, bu nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirib, iste‘molchilarga qulaylik tug‘dirishi bilan birga korrupsion holatlarni yo‘qotishda ham keng qo‘l keladi.

– Mamlakatimizning barcha hududlarida global internet tarmog‘iga ulanish, barcha hududlarni imkon qadar to‘liq va tez internet bilan ta‘mi‘lash, uni sifatini yaxshilashimiz hamda mahalliy uyali aloqa operatorlari 4G/LTE aloqa xizmatlarini samarali yo‘lga qo‘yish, shuningdek, 4G qamrovi faqat yirik shaharlarda emas balki qishloq joylarda ham ishlashini ta‘minlash lozim.

– Shuningdek, mamlakat aholisini raqamli texnologilar bo‘yicha malakalarini oshirish va ushbu sohaga oid kurslar tashkil qilish, seminarlar o‘tkazish va ommaviy axborot vositalari yordamida savdo platformalari orqali xarid qilishdagi savodxonligini oshirish, elektron savdo indikatorlari sonini ko‘paytirish lozim.

– Tashkil etilayotgan online savdo platformalri Veb-sayt qurilishidagi barcha zamonaviy tendensiyalar hisobga olingan holda ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya qilish imkoniyatiga ega bolishi lozim hamda iste‘molchilar uchun qulay foydalanish, xaridorlarning talab va ehtiyojlarini qondirish, tez va oson xarid qilish va xarid qilingan Tovar va mahsulotlarni ishonchli yetkazib berish xizmatini yo‘ga qo‘ymog‘i lozim.

References:

1. Ахмедов, Б. А. (2021). Таълимда ахборот технологиялари фанининг модулларини ўқитишда кластерли-инновацион технологиялардан фойдаланиш тамойиллари. *O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi*, 441.
2. Akhmedov, B. A. (2023). Improvement of the digital economy and its significance in higher education in tashkent region. *Uzbek Scholar Journal*, 12, 18-21.
3. Akhmedov, B. A. (2023). Innovative pedagogical technologies in the modern educational system. *World Bulletin of Social Sciences*, 19, 107-112.
4. Akhmedov, B. A. (2022). Use of Information Technologies in The Development of Writing and Speech Skills. *Uzbek Scholar Journal*, 9, 153-159.
5. Akhmedov, B. A. (2022). Psychological and pedagogical possibilities of forming tolerance in future teachers. *Uzbek Scholar Journal*, 11, 289-295.
6. Akhmedov, B. A. (2023). Methods to increase algorithmic thinking in primary education. *Uzbek Scholar Journal*, 12, 22-26.



7. Ахмедов, Б. А. (2023). Интеграллашган таълимда талабалар билимларини виртуал тест назорат қилиш тизимларини ишлаб чиқиш концепцияси. *PEDAGOG*, 1(5), 86-92.
8. Akhmedov, B. A. (2022). Principles of Developing the Professional Competence of Future Teachers on the basis of a Cluster Approach. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 760-770.
9. Seitniyazov, K. M. (2023). Some traditional names in Toponymics. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 842-845.
10. Махмудова, Д. М., & Мирхалилова, Н. А. (2021). ТАЛАБАЛАРДА МАТЕМАТИК САВОДХОНЛИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ. *Scientific progress*, 2(4), 476-480.
11. Абдужаббарова, Ф. А. (2020). Бошланғич таълимда PRILS- халқаро баҳолаш дастурига тайёрланиш усуллари. *Мактаб ва ҳаёт*, 1(1), 27-28.
12. Abdujabbarova, F. A. (2020). The methods of studying and analyzing classical poetic arts in literature lessons. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 1637-1641.
13. Abdujabbarova, F. A. (2020). Teaching Uzbek Language and Literature Based on Interactive Technologies. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 20(2), 2555-2558.
14. Abdujabbarova, F. A. (2020). Historical and cultural background of typological study Russian and Uzbek literature. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 2555-2558.